O‘zbekiston-Tatariston: ilmiy hamkorlik kengaymoqda

Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonov boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga amaliy tashrifi chog‘ida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qator kelishuvlarga erishildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi va Qozon federal universiteti o‘rtasida Toshkent viloyati hokimligi va Tatariston Respublikasi hukumati o‘rtasida 2021–2022-yillarga mo‘ljallangan hamkorlikni kengaytirish bo’yicha “Yo‘l xaritasi” asosida o‘zaro Anglashuv memorandumi imzolandi.

Memorandum doirasida qo‘shma fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, innovatsion faoliyatni birgalikda amalga oshirish, qo‘shma ta’lim va ilmiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, pedagogik va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish hamda ilmiy-ma’rifiy faoliyatni takomillashtirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-amaliy faoliyatni takomillashtirish, shu jumladan, xalqaro akademik

almashinuv yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

shuningdek, tomonlar, O‘zbekistonda Omiks va molekulyar genetik texnologiyalar qo‘shma markazini tashkil etish imkoniyatlarini ham o‘rganadilar.